

Mazmundor ekskursiya

12 noyabr kuni “Qishloq va suv xo’jaligi energiya ta’minoti” fakulteti 5313200 - “Texnika va texnologiyalarning texnik ekspertizasi va marketingi (elektr va elektron jihozlar) yo’nalishi 3 - bosqich 12 - guruh talabalari yangi joriy qilingan Ta’limda “5+1” tizimi doirasida “Qishloq xo’jaligi mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi(Agro texnologiya)” fanidan professor B.Shoymardonov boshchiligidagi Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan “BMKB-AGROMASH” AJ ga amaliy ekskursiya tashkil etishdi. Ekskursiya doirasida professor hozirda yurtimizda ishlab chiqarilayotgan zamonaviy qishloq xo’jaligi texnika va texnologiyalari bilan talabalarni tanishtirib, ularning tarkibiy qismlari, ishlash prinsiplari hamda qanday vazifalarda qo’llanilishi haqida batafsil ma’lumot berib o’tdi. Ekskursiya so’ngida professsor B.Shoymardonov “Qishloq xo’jaligi texnika va texnologiyalari, ularning istiqbollari” mavzusida talabalarga taqdimot qilib berdi va talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini ishlab chiqarish sohasi bilan bevosita tanishish orqali amaliy ko’nikmaga ega bo’ldilar.



Institut m atbuot xizmati rahbari R. Jumaniyozov